



YUNON-BAQTRIYA VA KUSHON TANGALARIDA IFODALANGAN MIFOLOGIK OBRAZLAR TAHLILI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Yunon-Baqtriya va Kushon davrlariga oid tangalarda uchraydigan mifologik obrazlar oddiy va tushunarli tilda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi tangalar faqat pul vositasi emas, balki o'sha davrning diniy qarashlari, madaniy aloqalari va siyosiy g'oyalarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba ekanligi ko'rsatib beriladi. Yunon-Baqtriya tangalarida asosan yunon mifologiyasiga oid xudolar tasvirlangan bo'lib, ular hukmdor hokimiyatini mustahkamlash va uni ilohiylashtirish maqsadida ishlatilgan. Kushon tangalarida esa turli madaniyat va dinlarga tegishli xudolar birgalikda uchraydi. Maqolada ikki davlat tangalari solishtirilib, ularning o'xshash va farqli tomonlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar:

numizmatika, mifologik obrazlar, Mitra, Shiva, Zeus, Afina, Apollon, Kanishka I, ikonografiya, qadimgi dinlar, siyosiy mafkura.



СУРХАНДАРЬЯ – КОЛЫБЕЛЬ ВЕЛИКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: **АНАЛИЗ МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ, ИЗОБРАЖЁННЫХ НА ГРЕКО-БАКТРИЙСКИХ И КУШАНСКИХ МОНЕТАХ**

АННОТАЦИЯ:

В данной статье проводится простое и понятное анализирование мифологических образов, изображённых на монетах греко-бактрийского и кушанского периодов. Исследование показывает, что древние монеты были не только средством обмена, но и важным историческим источником, отражающим религиозные представления, культурные связи и политические идеи того времени. На монетах греко-бактрийского периода преимущественно изображаются божества греческой мифологии, которые использовались для укрепления и сакрализации власти правителей. В кушанской чеканке, напротив, одновременно представлены божества различных культурных и религиозных традиций. В статье проводится сравнение монет двух государств и выявляются их сходства и различия.

Ключевые слова:

нумизматика, мифологические образы, Митра, Шива, Зевс, Афина, Аполлон, Канишка I, иконография, древние религии, политическая идеология.



**Shaymardanov
Azamat
Zokirovich,**

Termiz davlat
universiteti
O'zbekiston
tarixi va
manbashunoslik
kafedrasi
o'qituvchisi

SURKHANDARYA AS THE CRADLE OF GREAT CIVILIZATION: ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL IMAGES DEPICTED ON GRECO-BACTRIAN AND KUSHAN COINS

ANNOTATION:

This article provides a clear and accessible analysis of mythological figures depicted on coins from the Greco-Bactrian and Kushan periods. The study demonstrates that ancient coins were not merely a means of exchange, but also an important historical source reflecting the religious beliefs, cultural interactions, and political ideas of their time. Greco-Bactrian coins predominantly feature deities from Greek mythology, which were used to strengthen and legitimize royal authority through divine association. In Kushan coinage, however, deities belonging to various cultural and religious traditions appear together. The article compares the coinage of these two states and highlights their similarities and differences.

Keywords:

numismatics, mythological images, Mithra, Shiva, Zeus, Athena, Apollo, Kanishka I, iconography, ancient religions, political ideology.

Kirish:

Markaziy Osiyoda payo bo'lgan davlatlar turli madaniyat va diniy qarashlar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Shu sababli bu hududda shakllangan qadimgi davlatlarning madaniyati ham juda murakkab va turli-tuman bo'lgan. Ana shunday davlatlardan biri Yunon-Baqtriya podsholigi bo'lib, u Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan keyin paydo bo'lgan ellinistik dunyoning Sharqiy davomi hisoblanadi. Keyinchalik esa bu hududda Kushon imperiyasi shakllanib, juda katta hududlar va turli dinlarni birlashtirgan kuchli imperiyaga aylandi.

Bu ikki davlat mifologik obrazlarini o'rganishda eng muhim manbalardan biri tangalardir. Chunki tanga faqat iqtisodiy vosita emas, balki siyosiy, diniy va mafkuraviy ma'lumot beruvchi muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Tangalar orqali biz hukmdorlar qanday g'oya tarqatganini, jamiyat qanday xudolarga ishonganini va davlat qanday o'zini ko'rsatmoqchi bo'lganini tushunamiz.

Adabiyotlar tahlili:

Yunon-Baqtriya tangalariga qaraganda, bu davlatda yunon madaniyati juda kuchli ta'sir ko'rsatgan ko'rinadi.

Shu sababli tangalarda asosan yunon mifologiyasiga oid xudolar tasvirlangan. Eng ko'p uchraydigan obrazlardan biri Zeus bo'lib, u osmon va chaqmoq xudosi sifatida hukmdorlarning oliy hokimiyati ramzi hisoblangan¹. Ko'pincha u qo'lida chaqmoq ushlab turgan yoki taxtda o'tirgan holda tasvirlangan. Bu tasvir oddiy odamga ham "bu hukmdor kuchli va xudolar tomonidan tanlangan" degan g'oyani yetkazishga xizmat qilgan.



1-rasm.

Antiox I sharafiga bag'ishlab zarb etilgan Diodox I tangasi.

1 Беляева Т. Из казньчаря Деметрия-Паз. Коммунист издательство, Таджикистана 1978. – С. 54.



2-rasm.

Appolon tasviri tushirilgan Yunon-Baqtriya tangasi.

Yana bir muhim obraz Afina bo‘lib, u donolik va urush ma‘budasi hisoblangan². U ko‘pincha qalqon va nayza bilan tasvirlangan. Bu esa davlatning harbiy kuchi bilan birga, uning aql bilan boshqarilishini ham ifodalagan ko‘rinadi.

Tangalarda tasvirlangan Apollon esa quyosh, san‘at va uyg‘unlik ramzi bo‘lgan. Uning tasviri davlatning madaniy jihatdan rivojlanganini ko‘rsatgan. Apollon ko‘pincha arfa chalayotgan (musiqa asbobi) yoki kamon bilan tasvirlangan³.

Yunon-Baqtriya tangalarida eng muhim jihat shundaki, bu tasvirlar juda aniq, tartibli va ideal shaklda berilganligidir. Har bir qiyofa va tasvirlar yunon san‘atining klassik uslubiga mos keladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bu esa davlat o‘zini ellinistik dunyoning bir qismi sifatida ko‘rganini bildiradi.

Tadqiqotchilar, jumladan O. Bopearachchi, Yunon-Baqtriya tangalarini “klassik yunon san‘atining Sharqdagi davomchisi” deb ta‘riflaydi⁴. Bu tangalarda mahalliy diniy qarashlar namunalarini deyarli ko‘rmaymiz, balki, ular ko‘proq tashqi madaniyatni saqlab qolganiga o‘xshaydi.

Kushon imperiyasi davriga kelib Markaziy Osiyo tarixida eng murakkab va eng boy madaniy rivojlanish pallasiga qadam qo‘yadi. Bu imperiya nafaqat hududiy jihatdan katta bo‘lgan, balki madaniy jihatdan ham juda rang-barang edi. Aynan shu xilma-xillik Kushon tangalarida yaqqol ko‘rinadi. Agar Yunon-Baqtriya tangalarida asosan bitta madaniy an‘ana — yunon mifologiyasi ustun bo‘lsa, Kushon tangalarida turli xalqlarning diniy qarashlari bir-biriga aralashib ketganini ko‘ramiz. Bu holat tarixda “diniy sinkretizm” deb ataladi, ya‘ni turli din va e‘tiqodlarning bir tizimda uyg‘unlashuvi.

Kushon tangalarida eng ko‘p uchraydigan mifologik

obrazlardan biri Mitra hisoblanadi. Mitra qadimgi hind va eron an‘analarida quyosh, yorug‘lik va ahd ramzi sifatida tanilgan. Tangalarda Mitra odatda nur taratuvchi iloh sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir imperiyaning “adolat va tartib” g‘oyasini kuchaytirgan⁵. Chunki quyosh hamma joyni yoritadi degan g‘oya hukmdorning adolatli boshqaruvi bilan bog‘langan edi.



3-rasm.

Mitra tasviri tushirilgan Kanishka I oltin tangasi.

Yana bir muhim obraz Nana bo‘lib, u Markaziy Osiyoda qadimdan mavjud bo‘lgan ona ma‘buda obrazidir. Nana ko‘pincha unumdorlik, himoya va hayot beruvchi kuch sifatida tasvirlangan⁶. Tangalarda uning aks etishi shuni ko‘rsatadiki, Kushon imperiyasi mahalliy e‘tiqodlarni ham inkor qilmagan, aksincha ularni davlat mafkurasiga aylantirgan. Bu esa imperiyaning siyosiy jihatdan juda moslashuvchan bo‘lganini bildiradi.

Eng qiziqarli jihatlardan biri hind dini bilan bog‘liq Shiva obrazining tangalarda uchrashidir. Shiva ba‘zan Oesho nomi bilan yozilgan. U vayron qilish va qayta

² Горин А. Н., Двуреченская Н. Д. Каталог монет крепости Узундара (Южный Узбекистан). Материалы Тохаристанской экспедиции выпуск XI. Издательство журнала “San‘at” Ташкент. 2018. – С. 20

³ Грушевой А.Г. Два почётных декрета в честь Антиоха I-го (280-261 гг. до н. э.): OGIS 219, 222 // МНМОИ: Исследования и публикации по истории античного мира. Вып. 14. - СПб., 2014. – С. 171-184.

⁴ Bopearachchi O. La politique monétaire de la Bactriane sous les Séleucides // Topoi. Orient-Occident / V. Chankowski; F. Duyrat. – B. : Topoi, 2004. – No.

⁵ Болдыров А.Н., Брагинский И.С. Рукописная книга в культуре народов Востока. книга вторая. – М.: Наука, 1988. – С. 318.

⁶ Bracey R. “The Mint Cities of the Kushan Empire”. New York, 2015. – P. 56.



4-rasm.

Shiva tasvirlangan Kanishka I oltin tangasi.

yaratish xudosi sifatida tanilgan. Tangalarda Shiva odatda qo'lda triden (uch tig'li nayza) bilan tasvirlanadi¹. Bu tasvir Kushon imperiyasining Hindiston bilan kuchli madaniy va diniy aloqada bo'lganini ko'rsatadi.

Ayniqsa Kanishka I davrida tangalardagi diniy tasvirlar yanada ko'paygan va tizimlashtirilgan. Kanishka imperiyani boshqargan davrda turli din vakillari bir hududda yashagan. Shu sababli u diniy bag'rikenglik siyosatini yuritgan. Uning tangalarida turli xudolar birga uchraydi, bu esa imperiyaning diniy erkinlik siyosati yuritilganligini ko'rsatadi.

Kushon tangalarining yana bir muhim jihati – yozuv va tasvirning birga ishlatilishidir. Ya'ni tangalarda faqat rasm emas, balki xudolarning nomi ham yozilgan. Bu esa oddiy aholiga ham yanada tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Masalan, ba'zi tangalarda xudo nomi Baqtriya tilida yozilgan bo'lib, bu davlat ichida mahalliy tilning ham ishlatilganini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotchilar, jumladan Sims-Williams, Kushon tangalarini “Markaziy Osiyodagi diniy sintezning eng yorqin numizmatik dalili” deb ta'riflaydi². Bu fikr shuni anglatadiki, Kushon imperiyasi nafaqat siyosiy birlik, balki diniy va madaniy birlik yaratishga ham harakat qilgan.

Yunon-Baqtriya va Kushon tangalarini solishtirganda shu narsa aniq bo'ladiki, Kushon imperiyasida mifologiya ancha murakkab va keng qamrovli bo'lgan. Bu yerda bir

nechta diniy tizim bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan: hind, eron, mahalliy Markaziy Osiyo va qisman yunon an'analari o'z aksini topgan.

Kushon tangalarida mifologik obrazlar faqat diniy maqsadda emas, balki siyosiy maqsadda ham qo'llanilgan ko'rinadi ya'ni hukmdorlar bu obrazlar orqali o'z hokimiyatini yanada mustahkamlagan. Tangalardagi har bir xudo tasviri imperiyaning va hukmdor hokimiyati ilohiy kelib chiqishga ega ekanligini ifodalovchi ramz sifatida xizmat qilgan.

Yunon-Baqtriya podsholigi va Kushon imperiyasi tangalarini birgalikda ko'rib chiqish bizga qadimgi Markaziy Osiyoda diniy va madaniy qarashlar qanday o'zgarib borganini tushunishga yordam beradi. Bu ikki davlat bir-biriga yaqin hududlarda yashagan bo'lsa ham, ularning mifologik qarashlari va tangalarda aks ettirilishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farq asosan ularning siyosiy tuzilishi, madaniy ta'sirlari va jamiyat tarkibi bilan bog'liq.

Yunon-Baqtriya tangalarida asosan bitta asosiy madaniy tizim — yunon mifologiyasi hukmronlik qiladi. Bu yerda Zeus, Afina va Apollon kabi xudolar deyarli o'zgarmagan holda tasvirlangan³. Bu holat davlatning o'zini yunon dunyosining davomchisi sifatida ko'rganini bildiradi. Tangalarda tasvirlar aniq, tartibli va klassik uslubga asoslangan. Bu esa Yunon-Baqtriya jamiyatida madaniy bir xillik va yunon an'analariga sodiqlik kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

1 Tarn W.W. (1951). The Greeks in Bactria and India. 3rd Edition 1984. Ares Publishers, Chicago. ISBN 0-89005-524-6.
 2 Sims-Williams N., Cribb J. A New Baktrian... P. 97-99; Mukherjee B.N. Imperial Cults in the Kushana Empire // India and Central Asia. Tashkent, 2000. P. 69.
 3 Fussman G. Centrale. Paris, 2001. P. 251-293.

Kushon tangalari tasvirini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda bir nechta diniy tizimlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligini ko'ramiz. Masalan, Mitra, Nana va Shiva birgalikda uchraydi. Bu esa Kushon imperiyasining juda katta hududni boshqarganini va turli xalqlarni birlashtirishga harakat qilganini ko'rsatadi. Ayniqsa Kanishka I davrida bu jarayon yanada kuchaygan ko'rinadi.

Birinchidan, Yunon-Baqtriya faqat yunon mifologiyasi ishlatilgan bo'lsa, Kushonda hind, eron, mahalliy va qisman yunon diniy qarashlarini birlashtirgan. Bu holat Kushon imperiyasini "ko'p madaniyatli imperiya" sifatida ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Yunon-Baqtriya mifologiya asosan hukmdorni ilohiylashtirish va uning hokimiyatini kuchaytirish uchun ishlatilgan. Tanga orqali "hukmdor xudolar tomonidan tanlangan" degan g'oya berilgan. Kushon imperiyasida esa mifologiya bundan kengroq vazifani bajargan. U nafaqat hukmdorni, balki butun imperiyani birlashtirish vositasi bo'lgan. Har bir xudo turli xalq va dinlarni imperiyada tolerantlik kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki bu tangalarda hech bir din ustun qo'yilmagan, aksincha ular teng darajada tasvirlangan. Bu esa imperiyaning siyosiy yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Yunon-Baqtriya tangalari esa ko'proq "an'ana saqlovchisi" sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'z madaniyatini o'zgartirmasdan saqlab qolishga harakat qilgan. Kushon imperiyasi esa aksincha, yangi madaniy qarashlarni yaratgan va'ni turli dinlarni bir tizimga birlashtirgan.

Taxlil va natijalar:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu ikki davlat tangalari orqali biz qadimgi Markaziy Osiyoda ikki xil yondashuvni ko'ramiz: bir madaniyatga sodiqlik, ikkinchisi - ko'p madaniy qarashlarga ega bo'lgan jamiyat. Har ikkisi ham o'z davrida muhim rol o'ynagan va tarixiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, tangalar nafaqat pul vositasi, balki tarixni, diniy qarashlarni va siyosiy mafkurani o'zida aks ettiruvchi muhim manba ekanini ko'ramiz. Ayniqsa Yunon-Baqtriya va Kushon tangalarini solishtirish bizga qadimgi dunyoda madaniyatlar qanday o'zaro ta'sir qilganini va qanday yangi g'oyalar paydo bo'lganini tushunishga yordam beradi.

Yunon-Baqtriya va Kushon davriga oid tangalarni o'rganish qadimgi Markaziy Osiyo tarixini tushunishda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki tangalar oddiy pul vositasi bo'lib qolmay, balki o'sha davr jamiyatining siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodlari, madaniy aloqalari va hatto mafkuraviy g'oyalarini ham o'zida aks ettiradi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, Yunon-Baqtriya tangalarida mifologik obrazlar asosan yunon diniy tasvirlari bilan cheklanganligini ko'ramiz. Bu tangalarda Zeus, Afina va Apollon, Dioskur kabi xudolar asosiy o'rinni egallaydi. Bu tasvirlar hukmdor hokimiyatini ilohiylashtirish va uni qonuniylashtirish uchun tasvirlangan. Ya'ni podshoh o'zini xudolar bilan bog'lab, o'z hokimiyatining "ilohiy

asosga ega" ekanini ko'rsatishga harakat qilgan.

Yunon-Baqtriya tangalarining eng muhim jihatlaridan biri ularning ishlanishidagi bir xilligidir. Tasvirlar juda aniq, mukammal va klassik yunon san'ati an'analari mos holda ishlangan. Bu esa bu davlatning madaniy jihatdan yunon dunyosiga yaqin bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu tangalarda mahalliy Markaziy Osiyo diniy elementlari deyarli uchramaydi.

Kushon imperiyasi tangalarida esa butunlay boshqacha manzara kuzatiladi. Bu yerda turli madaniyat va dinlarga oid xudolar birgalikda tasvirlangan. Masalan, Mitra, Nana va Shiva kabi obrazlar bir tangalar tizimida yonma-yon uchraydi. Bu esa Kushon imperiyasining juda keng hududni qamrab olganini va turli xalqlarni birlashtirganini ko'rsatadi.

Ayniqsa Kanishka I davrida bu jarayon yanada kuchaygan. Uning siyosati diniy bag'rikenglik va madaniy qorishishga asoslangan edi. Tangalarda turli xudolarni birgalikda tasvirlash orqali hukmdor jamiyatda mavjud bo'lgan turli e'tiqodlarni teng darajada hurmat qilganini ko'rsatgan. Bu esa imperiyaning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Xulosa va takliflar:

Tahlilimiz natijasida shuni aytish mumkinki, Yunon-Baqtriya va Kushon tangalari o'rtasidagi eng katta farq Yunon-Baqtriya mifologiya asosan bitta madaniyat doirasida shakllangan bo'lib, u ko'proq siyosiy vositasi sifatida ishlatilgan. Kushon imperiyasida esa mifologiya ko'p qatlamli, murakkab va xarakterga ega bo'lib, u nafaqat hukmdorni, balki butun imperiyani birlashtirishga xizmat qilgan.

Shundaydek, tangalardagi mifologik obrazlar orqali biz qadimgi jamiyatning dunyoqarashini ham tushunamiz. Yunon-Baqtriya xudolar mukammal, ideal shaklda tasvirlangan bo'lib, bu jamiyatda tartib va idealashtirish kuchli bo'lganini bildiradi. Kushon tangalarida esa xudolar turli shakl va uslublarda tasvirlangan bo'lib, bu jamiyatning ochiqligi va moslashuvchanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, bu ikki davlat tangalarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, qadimgi Markaziy Osiyoda madaniyatlar o'zaro aloqada bo'lgan, bir-biriga ta'sir qilgan va yangi diniy hamda madaniy tizimlar shakllanishiga sabab bo'lgan. Tangalar esa bu jarayonni eng aniq va ishonchli aks ettiruvchi tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Yunon-Baqtriya va Kushon tangalarini o'rganish nafaqat numizmatika uchun, balki tarix, dinshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. Chunki bu tangalar orqali biz qadimgi insonlarning qanday fikrlaganini, nimaga ishonganini va qanday yashaganini haqida aniq tasavvurga ega bo'lamiz.